TOSHKENT VILOYATI ZANGIOTA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 9-iyul 139-10-138-Q/24 Zangiota tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 3-iyundagi 432-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘grisida”gi 200-sonli hamda Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 3-iyundagi 432-10-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-maydagi 200-sonli va Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 3-iyundagi 432-10-0-Q/24-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqatini tashkil qilish bo‘yicha respublika komissiyasi tashkil etilganligi;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2024-yildagi ochiq muloqati Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘tkazilishi;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2024-yildagi ochiq muloqatini tashkil etish sxemasi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3.Tumanda tadbirkorlar muammolarini o‘rganish va hal qilish bo‘yicha hududiy ishchi guruh tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Hududiy ishchi guruhi (A.Inagamov):

- Har kuni tadbirkorlardan kelib tushgan individual xususiyatga ega masalalar joyida hal qilinishini ta’minlasin;

- Har haftada biriktirilgan sektorning har bir MFYga chiqqan holda, tadbirkorlar bilan sayyor qabullar tashkil etib, aniqlangan tizimli muammolar va ularning yechimi bo‘yicha takliflarni viloyat shtabiga kiritib borsin.

5. Savdo-sanoat palatasi (A.Inagamov) hamda manfaatdor korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

- har yili 15-iyunga qadar Respublika shtabi, ekspert guruhlari va hududiy ishchi guruhlarni joylashtirish va ularni zarur moddiy texnik jihozlar bilan ta’minlash masalasini hal qilsin.

- har yili 15-avgustga qadar “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoniga biznesdagi muvaffaqiyatlari va ijtimoiy faolligi bilan namuna bo‘layotgan tadbirkorlar orasidan nomzodlar ro‘yxatini o‘rnatilgan tartibda umumlashtiruvchi yuqori tashkilotga taqdim etib borsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (G‘Jo‘rayev) va Savdo-sanoat palatasi (A.Inagamov) belgilansin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Berdiyev zimmasiga yuklansin.

ilova

Tumanda tadbirkorlar muammolarini o‘rganish va hal qilish bo‘yicha tuman ishchi guruhi

TARKIBI

1.	E.Rustamov	-	Tuman hokimi, ***ishchi guruh rahbari***
2.	A.Inagamov	-	Savdo-sanoat palatasi rahbari, ***ishchi guruh rahbari o‘rinbosari***
3.	T.Boliqulov	-	Tuman hokimining o‘rinbosari
4.	D.Sulaymonov	-	Tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i
5.	G’.Jo’rayev	-	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshligi o’rinbosari
6.	SH.Umarxajayev	-	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i
7.	A.Arislanbaev	-	Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
8.	A.Eshonqulov	-	Tuman adliya bo’limi boshlig‘i
9.	Lavozimiga ko’ra	-	Tuman tijorat banklari rahbarlari
10.	R.Axrsrov	-	Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i
11.	B.Nurillayev	-	Majburiy ijro bo‘limi boshlig‘i
12.	S.Qosimov	-	Kadastr agentligining Zangiota tumani bo‘limi boshlig‘i
13.	K.Ergashev	-	Tuman elektr tarmoqlari rahbari
14.	A.Xakimov	-	“Hududgaz” gaz ta’minoti korxonasi rahbari
15.	B.Tashmetov	-	Tuman suv ta’minot bo‘limi boshlig‘i

Izoh: *Tuman ishchi guruhi a’zolari boshqa ishga o‘tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

Lozim hollarda ishchi guruhi tarkibiga tegishli bo‘lim va idoralarning vakillari kiritiladi.

Tuman hokimi **E.E.RUSTAMOV**